

O‘ZBEKISTONDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING IJTIMOIIY-MADANIY JARAYONLARDAGI O‘RNI: TARIXIY TAHLIL (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

Norto‘rayev Suxrob Erkin o‘g‘li

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

suxrob.norto'rayev01@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0007-3621-2944>

UDK: 117:004-2:102.4(111:07)

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy-madaniy hayotdagi o‘rni hamda ularning jamiyat taraqqiyotiga ko‘rsatgan ta’siri tarixiy nuqtai nazardan tahlil etiladi. Qashqadaryo viloyati misolida ommaviy axborot vositalarining shakllanish va rivojlanish bosqichlari, ularning ijtimoiy ongini o‘zgartirishdagi, milliy qadriyatlarni targ‘ib etishdagi hamda aholi madaniy saviyasini yuksaltirishdagi roli ochib beriladi. Shuningdek, viloyatdagi matbuot nashrlari, televideniye va radio dasturlarining faoliyati, zamonaviy axborot texnologiyalari — internet va ijtimoiy tarmoqlarning jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Ommaviy axborot vositalari, Qashqadaryo viloyati, axborot siyosati, matbuot, televideniye, radio, internet, ijtimoiy hayot, madaniyat, media madaniyat, raqamli jurnalistika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

Аннотация: В данной статье анализируется с исторической точки зрения роль средств массовой информации в социально-культурной жизни Республики Узбекистан и их влияние на развитие общества. На примере Кашкадарьинской области раскрываются этапы становления и развития средств массовой информации, их роль в преобразовании общественного сознания, пропаганде национальных ценностей и повышении культурного уровня населения. Также проанализирована деятельность печатных изданий, теле — и радиопрограмм в регионе, роль современных информационных технологий-интернета и социальных сетей в формировании общественного мнения.

Ключевые слова: СМИ,

Кашкадарьинская область, Информационная политика, пресса, телевидение, радио, интернет, общественная жизнь, культура, медиакультура, цифровая журналистика, ИКТ.

Annotation: This article analyzes from a historical point of view the role of mass media in the socio-cultural life of the Republic of Uzbekistan and their impact on the development of society. Using the example of the Kashkadarya region, the stages of the formation and development of mass media, their role in transforming public consciousness, promoting national values and raising the cultural level of the population are revealed. The article also analyzes the activities of print publications, television and radio programs in the region, the role of modern information technologies —the Internet and social networks in shaping public opinion.

Keywords: Media, Kashkadarya region, Information Policy, Press, television, radio, internet, social life, culture, media culture, Digital Journalism, ICT.

KIRISH. (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUSTION). O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, mamlakat hayotining barcha sohalarida tub islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, ijtimoiy-madaniy sohada axborot erkinligi, so‘z va fikr erkinligining shakllanishi jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab berdi. OAV nafaqat axborot yetkazuvchi vosita, balki jamiyatda demokratik qadriyatlarni mustahkamlovchi, jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi, fuqarolik mas’uliyatini oshiruvchi muhim ijtimoiy institut sifatida shakllandi. Shu bilan birga, mustaqillik yillarida O‘zbekistonning barcha hududlarida,

jumladan, Qashqadaryo viloyatida ham mahalliy OAV tizimi sezilarli darajada rivojlandi. Hududiy matbuot, tele va radiokanallar, internet nashrlari orqali aholining ijtimoiy faolligini oshirish, milliy qadriyatlar va ma'naviy-ma'rifiy g'oyalarni targ'ib etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borildi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, mustaqillikning ilk yillarida mamlakatda OAV soni 100 tadan oshmagan bo'lsa, bugungi kunda bu ko'rsatkich 1800 dan ortiqni tashkil etmoqda. Ayniqsa, internet nashrlar va blog platformalarining soni keskin ko'payib, raqamli jurnalistika yangi bosqichga chiqdi[7:90]. Bugungi kunda OAV nafaqat voqealarni yoritadi, balki jamiyat tafakkuriga ta'sir ko'rsatadigan, yoshlarni ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga jalb qiladigan asosiy kuchlardan biriga aylanib bormoqda. Ular orqali axborot erkinligi, so'z va fikr bildirish madaniyati rivojlanmoqda. Raqamli kommunikatsiyalar vositasida media savodxonlik darajasi ortib, fuqarolarning ongli ishtiroki kuchaymoqda. O'zbekiston ommaviy axborot tizimi mustaqillik yillarida shakllangan va rivojlanishning bir necha bosqichlarini bosib o'tdi[3:103]. Dastlabki davrda matbuot, radio va televideniye asosiy axborot manbalari bo'lib xizmat qilgan bo'lsa, hozirda internet nashrlar, bloglar va ijtimoiy tarmoqlar asosiy kommunikatsion platformaga aylandi. So'nggi yillarda O'zbekiston ommaviy axborot maydoni sezilarli o'sish bosqichiga kirdi. Bugungi kunda mamlakatda quyidagi ko'rsatkichlar qayd etilgan: 640 dan ortiq gazetalar, 480 turdagi jurnallar, 70 dan ziyod telekanallar, 35 ta atrofida radiostansiyalar va 630 dan ortiq Internet nashrlar va veb-platformalar faoliyat ko'rsatmoqda. Raqamli tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda internet orqali yangiliklarni kuzatuvchi foydalanuvchilar soni millionlab kishilarga yetgan bo'lib, ularning asosiy qismini yoshlar tashkil etadi. Bu yesa OAVning raqamli sohada yangi auditoriyani shakllantirayotganini bildiradi. Ijtimoiy tarmoqlarda yangiliklarni muhokama qilish, ulashish va sharhlash madaniyati ortmoqda. Bu holat OAVning faqat

axborot tarqatuvchi yemas, balki jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi omilga aylanganini ko'rsatadi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab Qashqadaryo viloyatida davlat ommaviy axborot vositalari — teleradiokompaniyalar va mahalliy gazetalarning tizimli faoliyati yo'lga qo'yildi. Ommaviy axborot vositalari faoliyati uchun tashkiliy va moddiy asoslar yaratildi.

1997-yilda "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida", 2002 – yilda "Axborot erkinligi prinsiplarini ta'minlash to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Mazkur qonunlar asosida OAV faoliyati huquqiy jihatdan mustahkamlandi. Mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari tizimini takomillashtirish va uning jamiyatdagi o'rnini oshirishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-iyundagi PQ-4366-son "Ommaviy axborot vositalari sog'lom rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va ularning jamiyatdagi rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori soha taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi.[1:34] Mazkur qarorda ommaviy axborot vositalarining huquqiy va iqtisodiy asoslarini mustahkamlash, jurnalistlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda axborot sohasida ochiqlik[2:14] va raqobat muhitini ta'minlash kabi ustuvor yo'nalishlar belgilab berilgan. Qaror asosida "Ommaviy axborot vositalari agentligi" tashkil etildi, shuningdek, jurnalistlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish va ularning kasbiy malakasini oshirish bo'yicha tizimli choralar belgilandi. Bu qaror asosida Qashqadaryo viloyatida ham ommaviy axborot vositalari faoliyatini rivojlantirish va ularning jamiyatdagi ta'sirini oshirish bo'yicha amaliy ishlar yo'lga qo'yildi. Xususan, mahalliy telekanallar va gazetalarning moddiy-texnika bazasi yangilandi, raqamli texnologiyalardan foydalanish kengaydi. Viloyatda internet axborot saytlari va blogerlik faoliyati faollashdi, bu esa aholiga axborotni tezkor va ishonchli yetkazish imkoniyatlarini oshirdi. Shu bilan birga, qaror doirasida jurnalistlarning huquqiy himoyasi va kasbiy malakasini oshirishga qaratilgan dasturlar amalga oshirildi.

Qashqadaryo viloyatidagi ommaviy axborot

vositalari fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini kuchaytirish, davlat islohotlarini keng yoritish hamda jamoatchilik fikrini shakllantirishda muhim platforma sifatida namoyon bo'ldi. Shu tariqa, PQ-4366-son qaror viloyatda axborot makonini erkin va sog'lom muhitga aylantirishda muhim omil bo'ldi. Qashqadaryo viloyatida ham media makonning rivojlanishi yangi bosqichga ko'tarildi. Bugungi kunda viloyatda bosma, teleradio va internet nashrlari orqali jamoatchilikka axborot yetkazishning samarali tizimi yo'lga qo'yilgan. Bugungi kunda Qashqadaryo viloyatida "Qashqadaryo haqiqati", "Ma'rifat", "Yoshlar to'liqini" kabi qator gazeta va jurnallar nashr etib kelinmoqda. Ushbu nashrlar jamoatchilikni mamlakatda va hududda kechayotgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy hamda madaniy jarayonlar haqida xabardor qilishda muhim o'rin tutadi. Mazkur nashrlarda berilayotgan maqolalar orqali aholi o'rtasida islohotlarning maqsadi, ahamiyati va ularning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri haqidagi fikrlar ommalashtirilmoqda. Shu bilan birga, yoshlar siyosatiga doir materiallar viloyat yoshlarining ijtimoiy faolligini oshirish, ularni zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishga rag'batlantirish, vatanparvarlik va ma'naviy barkamollik ruhida tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Gazetalarda fuqarolarning faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, demokratik qadriyatlar va so'z erkinligini rivojlantirishga oid mavzular ham keng yoritilmoqda. Shu orqali ommaviy axborot vositalari jamiyatda ijtimoiy ongni yuksaltirish, ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlash va davlat hamda jamiyat o'rtasida ochiq muloqot maydonini yaratishda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, Qashqadaryo viloyati teleradiokompaniyasi ham hududda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, yangi loyihalar va aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan dasturlarni keng jamoatchilikka yetkazishda muhim axborot maydoni vazifasini bajarmoqda. Teleradiokanallar orqali qishloq xo'jaligi, ta'lim, tadbirkorlik, madaniyat va turizm sohalaridagi yangiliklar doimiy ravishda yoritilib borilmoqda. Qashqadaryo viloyati teleradiokompaniyasi (QashqadaryoTRK)

hozirgi kunda viloyat aholisi uchun muhim axborot va ma'naviy-ma'rifiy maydon sifatida faoliyat yuritmoqda. Telekanal va radiodasturlar asosan jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlarni yoritishga qaratilgan.

Qashqadaryo viloyatida telerepertuar yo'nalishlari qo'yidagilardan iboratdir. Jumladan, ijtimoiy-siyosiy ko'rsatuvlar orqali, mamlakat va viloyatdagi islohotlar, Prezident qarorlarining ijrosi, davlat dasturlarining amalga oshirilishi haqida tahliliy materiallar beriladi. Madaniy-ma'rifiy dasturlarda milliy an'analar, ma'naviyat, kitobxonlik va oilaviy qadriyatlarni targ'ib etuvchi ko'rsatuvlar ("Ma'naviyat soati", "Yurtim go'zali", "Madaniyat va hayot" kabi). Yoshlar va ta'limga oid ko'rsatuvlarda asosan, yosh avlodning faolligi, ta'lim tizimidagi yangiliklar, iqtidorli yoshlarning yutuqlariga bag'ishlangan loyihalar ("Yoshlar minbari", "Ilm va hayot"), iqtisodiy va qishloq xo'jaligi mavzularida esa hududdagi sanoat, fermer xo'jaliklari, yangi ishlab chiqarish loyihalari haqida reportajlar ("Hudud iqtisodi", "Dehqon hayoti") va axborot yangiliklarida asosan "Qashqadaryo yangiliklari" axborot dasturi orqali kunlik voqealarni tezkor yoritish bo'yicha ko'rsatuvlar namoyish etib kelinmoqda.

Qashqadaryo radiosi ham shu yo'nalishlarda efirga chiqadi. Radio efirlarida mahalliy ijrochilar chiqishlari, viloyat hayotiga oid jonli muloqotlar va tadbirlar haqida ma'lumotlar uzatiladi. Bu dasturlar orqali Qashqadaryo TRK nafaqat axborot manbai, balki jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi ommaviy maydon sifatida muhim ijtimoiy rol o'ynaydi. Internet tarmog'ining rivojlanishi natijasida viloyatda yangi elektron axborot muhiti shakllandi. Xususan, "qarshi.uz", "qashqadaryonews.uz" kabi onlayn manbalar faoliyati kengaydi. Shuningdek, mahalliy blogerlar jamoatchilik fikrini shakllantirishda, ijtimoiy muammolarni yoritishda va fuqarolarning axborotga bo'lgan ehtiyojini tezkor qondirishda muhim rol o'ynamoqda.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Ommaviy axborot vositalari O'zbekiston ijtimoiy-madaniy hayotining

ajralmas qismi bo'lib, fuqarolik jamiyatining shakllanishi va demokratik qadriyatlar mustahkamlanishida muhim rol o'ynamoqda. Qashqadaryo viloyatidagi ommaviy axborot vositalari hozirgi kunda faol rivojlanish bosqichida turibdi. Media sohada raqamli texnologiyalardan foydalanish kengaymoqda,

jurnalistlar faoliyatida ochiqlik va xolislik tamoyillari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonlar viloyatda so'z erkinligini ta'minlash, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va aholining axborot madaniyatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI

(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-iyundagi "Ommaviy axborot vositalari sog'lom rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va ularning jamiyatdagi rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4366-son qarori. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2019 y., №26, 511-modda.
2. Mirziyoyev Sh.M. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga tabrik so'zi. — www.uza.uz, 2017-yil 27-iyun.
3. O'zbekiston Respublikasi "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonuni. — 2007-yil 15-yanvar, O'RQ-78.
4. O'zbekiston Respublikasi "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi Qonuni. — 2014-yil 5-may, O'RQ-369.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
6. Qodirova D. O'zbekiston ommaviy axborot tizimida raqamli media rivoji. Toshkent, 2022.
7. Rasulov S. Axborot siyosati va jamoatchilik bilan aloqalar. T.: O'zbekiston, 2020.